

# PEDAGOGIK FAOLIYATDA DARSLARNI TAHLIL QILISHNING TURLARI VA AHAMIYATI.

*Shukurov Xursan Gadoyevich,*

*Norova Intizor Haqberdiyevna*

*Matematika fani o'qituvchilari,*

*BuxMTI akademik litseyi*

Annotatsiya: Dars tahlili bu - hozirgi zamон pedagoglari dars ishlanmalarini kuzatish, o'tilayotgan dars o'quvchiga qay yo'sinda yetib borayotganligini aniqlash hamda darsda qo'llaniladigan metodlarni o'rganish va kamchiliklarini bartaraf etishdir.

Kalit so'zlar: Dars, tahlil, pedagog, jarayon, ta'lim, o'quvchi, fikrlash, murakkab, faoliyat.

Respublikamizda ta'lrim tizimi islohotlari bosqichma bosqich oshib borar ekan, bu kelajak avlod uchun yuksak marralarga poydevor ham demakdir. Shu yo'sinda bu jarayon bilan bog'liq ravishda pedagoglarning ham bilim saviyasini oshirib borilishi talab qilinmoqda. Dars tahlili esa pedagog bilim salohiyatini hamda mahoratini oshirishning eng samarador yo'li hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini mazmunli ravishda tahlil qilish bevosita ta'lim jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etadi hamda turli metodik ishlanmalarni yaratadi.

Dars tahlilini muayyam bulaklar yoki bir butun yaxlit qilib o'rganib chiqish mumkin. Darsni tahlil qilish orqali o'quvchiga yetib borgan bilim qay yo'nalishda ekanligini tushunib olsa bo'ladi. Darsni tahlil qilayotganda nafaqat dars o'tayotgan o'qituvchini balki darsni tahlil qilayotgan o'qituvchini ham salohiyati namoyon bo'ladi. E. I. Passovning shunday so'zlari bor edi " darsni qanday tahlil

qilayotganingizni ko'rsating, men sizga qanday o'qituvchi ekanligingizni aytaman" bu ham yuqoridagi fikr tasdiqi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Dars tahlil jarayoniga shunchaki yuzaki baho berish noto'g'ri albatta, sababi dars qay yo'sinda olib borilsa ta'lismiz ham shu tartibda boraveradi. Darsga puxta tayyorgarlik, chuqur tahlil qilish, o'z - o'zini tanqid qila olish, kasbdoshlari bilan xushmomilalik, tajriba almashish va umumlashtirish, ta'lismiz faoliyatida qiziqarli va foydali metodik ko'rsatmalarini ishlab chiqish o'qituvchini shakllantiradi hamda ta'lismizda o'rmini yuksaltiradi. Zamonaviy dars tahlillarini quyidagi turlari mavjud: Ilmiy tahlil. Metodik tahlil. Didaktik tahlil. Umumpedagogik tahlil. Umumpsixologik tahlil.

Ilmiy tahlil - berilayotgan bilmlarning ilmiy - nazariy jihatni, ta'lismiz oluvchilarining bajaradigan mustaqil ta'limi qay darajada maqsadga muvofiq yo'nalganligini aniqlash.

Metodik tahlil - bunda o'qutuvchi o'quv materiallari bilan o'quvchilar diqqatini torta olishi, dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lismiz metodlarning maqsadga muvofiqligi va izchilligi, ta'limga turi va o'ziga xosligiga qarab tahlil qilinadi.

Didaktik tahlil - O'qituvchi tomonidan o'quv mashg'ulotlarini ta'lismiz tamoyillariga amal qilgan holda, darsga qo'yilgan talablar asosida olib borilishi ko'zda tutiladi.

Umumiyyatli pedagogik tahlil - bunda o'quv mashg'uloti mazmunining ilmiy metodik va didaktik jihatlari majmuaviyiliği nazarda tutiladi.

Umumiyyatli psixologik tahlil - bunda o'quv mashg'ulotlari jarayoni natijasida quyidagi ruhiy holatlar orqali dars samaradorligiga erishish nazarda tutiladi : o'quvchi va o'qituvchi o'zaro bir birini tushuna olishi va qullab quvvatlashi, ular o'zaro bir birlarini his etishi, ruhiy holati va kechinmalarini his etishi, o'qituvchi va o'quvchi nafaqat dars jarayonida balki darsdan tashqari holatda ham bir biriga bo'lgan munosabati va h.k.

Dars tahlilining eng nozik jarayonlaridan biri bu pedagoglarning o'z darsini o'zi tahlil qila olishidir. Bu jarayonda darsni boshqa birov emas aynan o'z darsini o'zi tahlil qilishidir. Ya'ni dars o'tib bo'lgandan keyin fikran o'tilgan darsning qay tartibda olib borilganligini, rejalashtirgan holatdan qanchalik chiqib ketganligi yoki mos kelganligini o'z - o'zi tahlil qila olishidir. O'qituvchi o'zdarsini o'zi tahlil qilish jarayonida samarali kechgan yutuqlarini mustahkamlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatadi. Nafaqat tahlil qilish balki tanqid qilish ham qaysidir ma' noda pedagog quroli hisoblanadi. Pedagog hamkasblarini emas aynan o'zini tanqid qila oldimi demak xato va kamchiliklarini ham bartaraf eta oladi. Bu tartibda fikrlay olgan o'qituvchi esa ham aqlan, ham ruhan o'sishda davom etadi. Pedagog o'z darsini o'zi tahlil qilishi bu murakkab ichki jarayon hisoblanadi. Sababi u o'z darsini qismma qism o'z taqrizidan o'tkazadi va o'tilgan darsga o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib baho beradi.

Xulosa. Dars tahlili o'qituvchi ish faoliyatidan kelib chiqib, dars jarayonida qo'llanilgan samarali metodlarni yanada takomillashtirish hamda targ'ib qilishdan va darsda kuzatilgan ayrim xato va kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Ta'lim tizimida dars tahlili bejizga asosiy o'rinni egallamagan sababi, dars shunchaki yuzaki qaraladigan jarayon emas albatta. Darsni tahlil qilishda uni turlarga bo' lib o'rganish esa o'qituvchi salohiyatini yanada namoyom qiladigan omil hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev I „, Dars tahlili ”
2. Davronov I. EbJo'rayev B.T „, Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi” 3. Sarsenbayeva R. M „, O'quv mashg'ulotlarni tahlil qilish metodikasi ”
3. Umarov A. S, Rahimov A. K, Mirzayeva N. A. „, Dars sifatining tahlili - ta'lim taraqqiyoti mezoni ”